



«TASDIQLAYMAN»

Sh. Rashidov nomidagi Smarqand  
davlat universiteti rektori

R. Xalmuradov

2022 yil

**Oliy ma'lumotga ega bo'lmagan hokim yordamchilarini davlat oliy ta'lim muassasalarining iqtisodiy ta'lim yo'nalishlariga Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimlarining tavsiyasiga ko'ra davlat granti asosida sirtqi ta'lim shakliga o'qishga kirish imtihonidagi suhbat savollari**  
**BAHOLASH ME'ZONI**

Talabgorga quyidagi mavzular bo'yicha har biridan bir donadan savol beriladi va umumiy maksimal 100 balgacha baholabadi. 55 va undan yuqori ball to'plagan talabgor suhbatdan o'tgan hisoblanadi

<b>№</b>	<b>Mavzular</b>	<b>Maksimal ball</b>
1	Mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarning mohiyati va ahamiyatini:	25
2	Tanlangan bakalavriyat ta'lim yo'nalishini tanlashdan asosiy maqsad:	25
3	Tanlangan bakalavriyat ta'lim yo'nalishiga mos mehnat faoliyati davomida erishgan yutuq va natijalari:	25
4	Tanlangan bakalavriyat ta'lim yo'nalishi sohasidagi bilim va kasbiy ko'nikmalarning mavjudligi bo'yicha:	25
	<b>Jami</b>	<b>100</b>

**1-4 mavzular bo'yicha berilgan savollariga talabgorning javobini baholash me'zoni**

<b>№</b>	<b>Baholash me'zonlari</b>	<b>Maksimal ball</b>
1	Mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarning mohiyati va ahamiyatini bo'yicha qo'yilgan savolga talabgor tomonidan to'liq, batafsil javob berilib, mavzu haqida ongli bilimlar to'plami ko'rsatilsa va mavzuning asosiy qoidalari ishonchli tarzda ochib berilganda. Javobda aniq tuzilma hamda ochilgan tushunchalar, nazariyalar va hodisalarning mohiyatini aks ettiruvchi mantiqiy ketma-ketlik ifodalanganda. Javob adabiy tilda fan nuqtai nazaridan ifodalanganda. Bunda tushunchalarni ifodalashda, javob berish jarayonida talabgor tomonidan mustaqil ravishda tuzatilgan xatolar bo'lishi mumkin.	1-25

2	Talabgor tomonidan tanlagan bakalavriyat ta'lim yo'nalishini tanlashdan asosiy maqsadi bo'yicha savolga to'liq, batafsil javob berib, mavzuning asosiy qoidalari aniq ochib berilganda. Javobda aniq tuzilma hamda ochilgan tushunchalar, nazariyalar va hodisalarning mohiyatini aks ettiruvchi mantiqiy ketma-ketlik ifodalanganda. Javob adabiy tilda fan nuqtai nazaridan ifodalanganda. Javobda suhbat komissiyasi a'zolari yordamida talabgor tomonidan tuzatilgan kamchiliklar bo'lishi mumkin	1-25
3	Talabgor tomonidan tanlagan bakalavriyat ta'lim yo'nalishiga mos mehnat faoliyati davomida erishgan yutuq va natijalari bo'yicha savolga yetarlicha to'liq va yetarlicha batafsil javob berilganda. Javobning mantiqiyligi va ketma-ketligi buzilmaganda. Tushunchalarni ochishda, atamalardan foydalanishda xatolarga yo'l qo'yilmaganda. Talabgor muhim va muhim bo'lmagan xususiyatlarni, sabab-natija munosabatlarini mustaqil ravishda aniqlay olganda. Talabgor umumlashtirilgan bilimlarni konkretlashtirishda va ularning asosiy qoidalarini misollar bilan isbotlab berilganda.	1-25
4	Talabgor tomonidan tanlagan bakalavriyat ta'lim yo'nalishi sohasidagi bilim va kasbiy ko'nikmalarning mavjudligi bo'yicha savolga to'liq, batafsil javob berib, savol mavzusi bo'yicha ta'riflarda sezilarli xatolar bo'lmaganda. Aniq yoki mantiqiy fikrlarni keltirganda. Savoldagi asosiy tushuncha, nazariya va hodisalarni boshqalari bilan bog'liqligini anglaganda. Xulosa, konkretlashtirish va qoida hamda jarayonlarning isboti mavjud bo'lganda. Yaxshi nutqqa ega bo'lganda. Suhbat komissiyasi a'zolarining qo'shimcha va aniqlovchi savollari talabgorning nafaqat berilgan savolga, balki mavzu bo'yicha boshqa savollariga ham qoniqarli javob berganda.	1-25
<b>Jami</b>		<b>1-100</b>

*Izoh: O'zbekiston Respublikasi davlat oliy ta'lim muassasalariga o'qishga qabul qilish jarayonlarini muvofiqlashtirish bo'yicha Davlat komissiyasining 2022- yil 3-avgustdagi 2-sonli bayoniga 7-ilovasi asosida tuzildi.*

**Qabul komissiyasi mas'ul kotibi**



**R.Mirzayev**